



MAHALLIY XOM ASHYO BAZASIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Eraliyev Alisher Abduxalilovich

Andijon davlat texnika instituti

“Iqtisodiyot” kafedrasida assistenti

Egamberdiyev Shavkatbek Shaxobiddin o‘g‘li

Andijon davlat texnika instituti

“Iqtisodiyot” yo‘nalishi 4-kurs talabasi

tel: +998991116112

shavkatbekegamberdiyev79@gmail.com

Annotatsiya.

Mazkur maqolada mahalliy xom ashyo bazasidan samarali foydalanishning iqtisodiy ahamiyati va uning korxonalar faoliyatiga ta'siri tahlil etiladi. Xususan, mahalliy resurslardan foydalanish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, importga qaramlikni qisqartirish hamda milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash imkoniyatlari yoritilgan. Maqola davomida mahalliy xom ashyo bazasining mavjud holati, undan foydalanish darajasi va uni rivojlantirish istiqbollari o'rganildi. Tadqiqot natijalari asosida 2024–2025 yillarda mahalliy xom ashyo asosida ishlab chiqarish hajmi o'sishi 6–9% oralig'ida kuzatilgani, mehnat unumdorligi 67% ga, rentabellik esa 91–92% darajasiga yetgani aniqlangan. Shuningdek, 2024 yilda qo'shimcha 45 000 ish o'rni yaratilgani qayd etilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy samaradorlik, ishlab chiqarish xarajatlari, sanoat rivoji, iqtisodiy barqarorlik, milliy iqtisodiyot, mahalliy lashtirish.

Kirish. Hozirgi davrda jahon iqtisodiyotida resurslardan samarali foydalanish, ayniqsa mahalliy xom ashyo bazasini rivojlantirish va undan oqilona foydalanish



masalasi barqaror iqtisodiy o‘shishning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Global ta’minot zanjirlaridagi uzilishlar, tashqi bozorlardagi beqarorlik va import narxlarining oshib borishi milliy iqtisodiyotlar oldiga ichki resurslardan maksimal darajada foydalanish zaruratini qo‘ymoqda. Shu nuqtai nazardan, mahalliy xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash, qo‘shimcha qiymat yaratish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda mahalliy xom ashyo bazasidan samarali foydalanish va uni iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayveriga aylantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-sonli Farmonida iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, sanoatni modernizatsiya qilish va mahalliy resurslardan keng foydalanish orqali yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan [1]. Shuningdek, farmonda sanoat tarmoqlarida mahalliy xom ashyodan foydalanishni kengaytirish, ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish darajasini oshirish hamda import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish masalalari alohida belgilab berilgan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-oktabrdagi PQ-295-sonli qarorida hududiy xom ashyo bazasidan samarali foydalanish orqali yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, mahalliy mahsulotlar ulushini oshirish hamda eksport salohiyatini kengaytirish vazifalari belgilangan [2]. Ushbu hujjat hududlar kesimida mavjud resurslardan to‘liq foydalanish va iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Mahalliy xom ashyo bazasidan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi bir qator muhim ko‘rsatkichlar orqali namoyon bo‘ladi [3]. Avvalo, bu ishlab chiqarish xarajatlarining sezilarli darajada kamayishi bilan izohlanadi. Chunki mahalliy resurslardan foydalanish transport, bojxona va logistika xarajatlarini qisqartiradi. Ikkinchidan, importga qaramlik darajasi pasayadi va valyuta mablag‘lari tejab qolinadi. Bu esa milliy iqtisodiyotning tashqi omillarga nisbatan barqarorligini



oshiradi. Shu bilan birga, mahalliy xom ashyo bazasidan samarali foydalanish iqtisodiyotda qo‘shimcha qiymat yaratish zanjirini rivojlantiradi. Xom ashyo eksport qilish o‘rniga uni ichki bozorda qayta ishlash orqali yuqori daromad olish imkoniyati yaratiladi [4]. Biroq, ushbu yo‘nalishda ayrim muammolar ham mavjud bo‘lib, ular orasida xom ashyo sifatining talab darajasida emasligi, zamonaviy qayta ishlash texnologiyalarining yetarli darajada joriy etilmaganligi hamda investitsiya resurslarining cheklanganligi alohida o‘rin tutadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada mahalliy xom ashyo bazasidan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi mavzusi kompleks tahliliy metod asosida o‘rganildi. Ma’lumotlar sifatida O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, hududiy statistika portallari va rasmiy iqtisodiy hisobotlar ishlatildi. Ishlab chiqarish samaradorligini baholashda rentabellik, mehnat unumdorligi va yalpi hududiy mahsulot o‘shish sur‘ati ko‘rsatkichlari asos sifatida qabul qilindi.

Maqolada kvantitativ metodlar statistik ko‘rsatkichlarni solishtirish va jadval tahlili, shuningdek, sifatli tahlil ilmiy maqolalar va qonuniy hujjatlar asosida qo‘llanildi. Hududlararo solishtirish orqali mahalliy xom ashyo bazasining samaradorligi va ishlab chiqarishga ta’siri aniqlanib, xulosalar chiqarildi.

Tahlil va natijalar.

Mahalliy xom ashyo bazasidan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini o‘rganishda birinchi navbatda milliy ishlab chiqarish va iqtisodiy o‘shishning asosiy ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda mamlakatning umumiy sanoat ishlab chiqarish hajmi 23 762 milliard so‘mni tashkil etdi [5]. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yillar bilan solishtirganda sezilarli darajada o‘shishni ko‘rsatadi va mahalliy resurslardan samarali foydalanish mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga bevosita ta’sir qilayotganini anglatadi.



1-jadval.

O‘zbekistonda ishlab chiqarish va hududiy o‘shish dinamikasi

Ko‘rsatkich	Davr	Qiymat	Izoh
Umumiy sanoat ishlab chiqarish hajmi	2024-yil	23 762 mlrd so‘m	Mahalliy resurslar hisobiga o‘shish
Sanoat ishlab chiqarish indeksi	2025 yanv–may	106,4%	2024 yilga nisbatan +6,4%
Samarqand viloyati o‘shishi	2024-yil	108,5%	Mahalliy xom ashyodan samarali foydalanish
Xorazm viloyati o‘shishi	2024-yil	108,4%	Qayta ishlash strategiyasi samarasi
Andijon viloyati o‘shishi	2024-yil	107,2%	Kichik va o‘rta korxonalar hissasi
Namangan YaHM	2025 III-chorak	58,6 trln so‘m	O‘shish sur‘ati 107,2%
Namangan sanoat mahsulotlari	2025 III-chorak	27,7 trln so‘m	O‘shish sur‘ati 109,0%

1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, mahalliy xom ashyo resurslaridan foydalanish darajasi bilan ishlab chiqarish hajmi o‘shish sur‘ati o‘rtasida bog‘liqlik mavjud. 2024-yilda Samarqand viloyatida ishlab chiqarish o‘shishi 108,5% ga yetgan bo‘lsa, Andijon viloyatida 107,2%, Xorazm viloyatida 108,4% ni tashkil etdi. Bu raqamlar shuni ko‘rsatadiki, mahalliy xom ashyo yetkazib berish zanjiridan samarali foydalanilgan hududlarda ishlab chiqarish samaradorligi sezilarli darajada oshgan. Namangan viloyatida 2025-yil uchinchi choragida yalpi hududiy mahsulot 58,6 trillion so‘mni tashkil etib, o‘shish sur‘ati 107,2% bo‘ldi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi esa 27,7 trillion so‘mga yetib, o‘shish 109,0% darajasida qayd etildi.

Import ko‘rsatkichlari tahlili iqtisodiy samaradorlikni yanada chuqur tushunishga yordam berdi. 2025-yil yanvar–sentyabr davrida O‘zbekiston importi jami 33,1 milliard AQSh dollarini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 15,6% ga oshgani qayd etildi. Import tarkibida transport va mashina uskunalari 33,9% ulush



bilan birinchi o‘rinni egallaydi, sanoat tovarlari 15,9%, kimyoviy mahsulotlar esa 12,3% ni tashkil qildi. Bu struktura ishlab chiqarish uchun ko‘plab xom ashyo va komponentlar hali ham chetdan olib kelinayotganini ko‘rsatadi, bu esa ichki resurslardan foydalanishni kengaytirish zaruratini yanada kuchaytiradi.

2-jadval.

Tashqi savdo va import tarkibi

Ko‘rsatkich	Davr	Qiymat	Izoh
Tashqi savdo aylanmasi	2025 yanv–sent	59,8 mlrd \$	2024 yilga nisbatan +22,9%
Eksport hajmi	2025 yanv–sent	26,7 mlrd \$	Eksport salohiyati oshgan
Import hajmi	2025 yanv–sent	33,1 mlrd \$	2024 yilga nisbatan +15,6%
Importda transport va uskunalari	2025 yil	33,9%	Birinchi o‘rin
Importda sanoat tovarlari	2025 yil	15,9%	Ichki resurslar bilan almashtirish mumkin
Importda kimyoviy mahsulotlar	2025 yil	12,3%	Mahalliy ishlab chiqarish zarur

2-jadvalda keltirilgan tashqi savdo ko‘rsatkichlari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 2025-yil yanvar–sentyabr oylarida 59,8 milliard AQSh dollarini tashkil etib, oldingi yilga nisbatan 22,9% ga oshgan. Eksport hajmi 26,7 mlrd dollarga yetgan bo‘lsa, import 33,1 mlrd dollarni tashkil qildi. Import hajmining o‘sganligi, ayniqsa transport uskunalari, sanoat tovarlari va kimyoviy mahsulotlar ulushining yuqoriligi, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va import o‘rnini bosish siyosatini yanada faollashtirish zaruratini ko‘rsatadi.

Ilmiy tadqiqotlar ham mahalliy xom ashyo bazasidan foydalanish samaradorligini tasdiqlaydi [6]. 2019-2024 yillar davomida 340 ta korxonada klaster yondashuvi bo‘yicha olib borilgan tahlil natijalariga ko‘ra, xom ashyodan



foydalanish darajasi dastlabki 65% dan 92% gacha oshdi. Bu o'sish mehnat unumdorligini 67,1% ga va rentabellikni esa 91,7% ga yetkazdi.

3-jadval.

Korxonalar samaradorligi va investitsiyalar

Ko'rsatkich	Davr	Qiymat	Izoh
Xom ashyodan foydalanish darajasi	2019–2024	65% → 92%	+27%
Mehnat unumdorligi	2019–2024	+67,1%	Integratsiya samarasi
Rentabellik	2019–2024	+91,7%	Qayta ishlash hisobiga
Investitsiyalar (Samarqand)	2024	125,6%	Zamonaviy texnologiyalar
Investitsiyalar (Xorazm)	2024	134,9%	Rentabellik oshishi
Faoliyat yuritayotgan korxonalar	2026 1 yanvar	474 899 ta	Iqtisodiy faollik yuqori
Mahalliy mahsulotlar qiymati	2023–2024	+18%	Import o'rnini bosish

3-jadvaldagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, mahalliy xom ashyo bazasidan samarali foydalanish nafaqat ishlab chiqarish hajmi oshishiga, balki kompaniyalarning moliyaviy ko'rsatkichlariga ham ijobiy ta'sir qilmoqda. Samarqand viloyatida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 125,6% ga oshgan, Xorazm viloyatida esa bu ko'rsatkich 134,9% ni tashkil etgan. 2026-yil 1-yanvar holatida jami 474 899 ta korxonalar va tashkilot faoliyat ko'rsatayotgani iqtisodiy faollikning yuqori darajasini ko'rsatadi. Mahalliy xom ashyo asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar qiymati 2023-yilga nisbatan 18% ga oshdi.

Mahalliy xom ashyo bazasidan foydalanishning yana bir muhim iqtisodiy natijasi uning mehnat bozoriga ta'siridir [7]. Qayta ishlash korxonalarining kengayishi natijasida 2024-yilda qo'shimcha 45 000 nafar ish o'rni yaratilgani qayd etildi. Bu nafaqat mahalliy aholi bandligini oshirishga, balki ularning daromad darajasini ko'tarishga ham xizmat qilmoqda.

Muhokama.



Mahalliy xom ashyo bazasidan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilganda, uning milliy iqtisodiyotga ijobiy ta'siri aniq ko'rinib turibdi. Rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning yanvar–may oylarida O'zbekiston sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari qiymati 375 trillion so'mni tashkil etdi va sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi 106,4% bo'ldi. Bu o'sish aynan mahalliy resurslar asosida ishlab chiqarishning kengayib borayotganini anglatadi.

1-jadvalda keltirilgan hududiy ko'rsatkichlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mahalliy xom ashyo resurslaridan foydalanish hududlar iqtisodiyotida sezilarli o'sish sur'atlarini keltirib chiqarmoqda. Namangan viloyatidagi ishlab chiqarishning o'sish ko'rsatkichlari (YaHM o'sishi 107,2%, sanoat mahsulotlari o'sishi 109,0%) mahalliy ishlab chiqarishning kengayganidan dalolat beradi. Bu o'sish xom ashyo resurslarini ichki ishlab chiqarish jarayonlariga o'z vaqtida jalb qilish va uni qayta ishlash imkoniyatlari bilan bog'liq.

Mamlakat iqtisodiy rivojlanishida kichik va o'rta biznesning roli katta ahamiyatga ega. Kichik va o'rta korxonalar milliy YAIMning yarmidan ko'prog'ini yaratadi va importni kamaytirish hamda mahalliy ishlab chiqarishni rag'batlantirish jarayonida faol ishtirok etadi. Ular to'qimachilik, agro-qayta ishlash, qurilish materiallari kabi sohalarda mahsulot ishlab chiqish orqali xom ashyo resurslaridan faol foydalanmoqda. Biroq, bu korxonalar hali ham moliyaviy resurslar cheklanganligi, eskirgan texnologiyalar va infratuzilma yetishmasligi kabi to'siqlarni yengishga harakat qilmoqda.

Mahalliy xom ashyo bazasidan samarali foydalanishning bir qator ijobiy ta'sirlari mavjud:

1. **Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish** – ishlab chiqarishning o'sishi natijasida bir nechta sohalar bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati oshadi, bu esa raqobatbardosh mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarda sotish imkoniyatini kengaytiradi.



2. **Bandlikni oshirish** – ishlab chiqarish o‘sishi yangi ish o‘rinlarini yaratadi va umumiy mehnat bozorini mustahkamlaydi. 2024-yilda 45 000 yangi ish o‘rni yaratilgani buning amaliy tasdig‘idir.

3. **Importga qaramlikni kamaytirish** – mahalliy ishlab chiqarish importga bo‘lgan qaramlikni kamaytirishga yordam beradi, ichki bozor ehtiyojlarini mahalliy xom ashyo bilan qondirish imkoniyati ortadi.

4. **Eksport salohiyatini oshirish** – mahalliy xom ashyo asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar qiymatining 18% ga o‘sishi eksport salohiyatining kengayotganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarishning texnologik tarkibi ham muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistonning sanoat ishlab chiqarishida o‘rta texnologiyali mahsulotlar ulushi oshmoqda, bu esa iqtisodiy samaradorlikni oshirib, yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar yaratishga xizmat qilmoqda.

Xulosa va takliflar.

Mahalliy xom ashyo bazasidan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi bo‘yicha olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ichki resurslardan oqilona foydalanish nafaqat korxonada darajasidagi ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlashda strategik rol o‘ynaydi.

4-jadval.

Ijtimoiy samara va rivojlantirish yo‘nalishlari

Yo‘nalish	Qiymat / Holat	Ta‘sir
Yangi ish o‘rinlari	2024 yilda 45 000	Bandlik va daromad oshishi
Asosiy muammolar	Sifat pastligi, texnologiya yetishmasligi, investitsiya cheklangan	Samaradorlikka to‘siq
Texnologik modernizatsiya	Innovatsiyalarni joriy etish	Xarajatlar kamayishi, sifat oshishi



Yo'nalish	Qiymat / Holat	Ta'sir
Ilmiy-tadqiqot integratsiyasi	Ishlanmalarni ishlab chiqarishga bog'lash	Innovatsion mahsulotlar
Investitsiyalarni jalb qilish	Mahalliy va xorijiy sarmoya	Quvvatlar kengayishi
Monitoringni kuchaytirish	Resurslardan foydalanishni kuzatish	Samaradorlik nazorati
Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash	Moliyaviy va infratuzilmaviy ko'mak	Import o'rnini bosuvchi mahsulotlar

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, 2024–2025 yillarda mahalliy xom ashyo asosida ishlab chiqarish hajmi o'sishi 6–9% oralig'ida kuzatildi, bu hududiy va milliy ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirdi. 3-jadvalda keltirilganidek, mehnat unumdorligi 67,1% ga, rentabellik esa 91,7% darajasiga yetdi. 4-jadvalda aks ettirilganidek, 2024-yilda qo'shimcha 45 000 ish o'zni yaratilgani mahalliy resurslardan foydalanishning ijtimoiy samarasini ko'rsatadi.

Amaliy tahlil natijalari mahalliy xom ashyo bazasidan foydalanishda ba'zi cheklovlar mavjudligini ko'rsatdi: xom ashyo sifati doimiy ravishda yuqori darajada emas, ba'zi hududlarda texnologiyalar eskirgan, investitsion resurslar yetarli emas. Shu sababli, samaradorlikni oshirish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. **Texnologik modernizatsiya va innovatsiyalarni keng joriy etish** – zamonaviy qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish orqali xom ashyo sifatini oshirish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish.

2. **Ilmiy tadqiqotlar va ishlab chiqarish integratsiyasi** – ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini ishlab chiqarish bilan bog'lash, innovatsion mahsulotlar yaratishni rag'batlantirish.

3. **Investitsion resurslarni jalb qilish** – mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va texnologik yangilanishni ta'minlash.



4. **Mahalliy resurslardan foydalanish monitoringini kuchaytirish** – resurslardan foydalanish samaradorligini tizimli ravishda kuzatish va baholash tizimini yaratish.

5. **Kichik va oʻrta korxonalarni qoʻllab-quvvatlash** – kichik va oʻrta biznes subʼektlariga moliyaviy va infratuzilmaviy koʻmak berish, ularning import oʻrnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishdagi ishtirokini kengaytirish.

Xulosa qilib aytganda, mahalliy xom ashyo bazasidan oqilona foydalanish milliy iqtisodiyotning barqaror oʻsishi, korxonalar samaradorligi va hududiy rivojlanishning asosiy omili hisoblanadi. Ilmiy asoslangan strategiyalarni qoʻllash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va hududiy investitsiyalarni oshirish orqali mamlakat ishlab chiqarish salohiyatini maksimal darajada oshirish mumkin. Shu bilan birga, davlat va korxonalar darajasida samarali monitoring tizimi va ilmiy-amaliy hamkorlikni rivojlantirish iqtisodiy samaradorlikni yuqori darajaga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.02.2026 yildagi PF-21-son. “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha moʻljallangan ustuvor yoʻnalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida”.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.10.2025 yildagi PQ-295-son. “Hududlarda sanoatni jadal rivojlantirish va sanoat korxonalarini eksportga jalb qilishning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida”.

3. Xushnudxanovna S. O., Shavkatbek E. MAHALLIYLASHTIRISH VA IMPORTNI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH //Modern education and development. – 2025. – T. 40. – №. 4. – C. 90-96.

4. Shavkatbek E. et al. SANOAT KORXONALARIDA MAHALLIY XOMASHYO ULUSHINI OSHIRISH ORQALI IMPORTGA QARAMLIKNI



KAMAYTIRISH //Modern education and development. – 2026. – Т. 43. – №. 3. – С. 266-274.

5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Sanoat va iqtisodiy ko‘rsatkichlar. www.stat.uz

6. Elbek H., Shavkatbek E. MAHALLIYLASHTIRISH ORQALI SANOAT TARMOQLARIDA QO‘SHILGAN QIYMATNI OSHIRISH VA EKSPORT SALOHİYATINI MUSTAHKAMLASH //Modern education and development. – 2026. – Т. 43. – №. 3. – С. 255-265.

7. Shavkatbek E. et al. MAHALLIYLASHTIRISH SIYOSATINING SANOATNI RIVOJLANTIRISH VA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISHDAGI O‘RNI //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2026. – Т. 62. – №. 3. – С. 246-258.

8. Tursunaliyevna, T. D. (2025). O‘zbekiston avtomobil sanoatining mahalliy lashtirishdagi muammolari va istiqbollari. Luchshie intellektualnye issledovaniya, 53(1), 441-449.

9. Shavkatbek E. SANOAT ISHLAB CHIQRISH HAJMI VA MAHALLIY XOM-ASHYO MANBALARINI QO‘LLASH ORQALI KORXONALARDA ISHLAB CHIQRISH TANNARXINI KAMAYTIRISH //Modern education and development. – 2025. – Т. 39. – №. 2. – С. 64-74.

10. Tursunoy X., Shavkatbek E. The Importance OF Digitalization in the Economy OF Uzbekistan //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – Т. 12. – №. 10. – С. 62-65.